

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I.** Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II.** Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III.** Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV.** Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V.** Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-avgust holatiga ko'ra, Viloyatda 3174 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 812 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 25,6 % i) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 732 tasi (23,1 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 285 tasi (9,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 239 tasi (7,5 %) kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-avgust holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9 574,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,6 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	9 574,2	107,6
Termiz shahri	1018,2	104,8
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	312,4	107,8
Bandixon tumani	161,1	123,0
Boysun tumani	145,0	107,2
Denov tumani	717,4	110,1
Jarqo'rg'on tumani	737,4	105,0
Qumqo'rg'on tumani	481,4	116,3
Qiziriq tumani	237,9	102,0
Muzrabot tumani	521,6	108,7
Oltinsoy tumani	242,3	108,8
Sariosyo tumani	539,5	103,0
Termiz tumani	553,1	117,1
Uzun tumani	304,4	109,6
Sherobod tumani	739,6	106,8
Sho'rchi tumani	612,2	111,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz tumanida (6 300,7 ming so'm), Termiz shaharda (4 879,2 ming so'm) Sherobod (3 427,7 ming so'm), Muzrabot (3 312,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 234,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bandixon tumanida (119,7 %), Qumqo'rg'on tumanida (113,7 %), Termiz tumanida (113,7 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyul oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 8 707,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (90,9 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 256,3 mlrd so'm (2,7 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 420,3 mlrd so'm (4,4 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 190,6 mlrd so'm (2,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-iyul oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 39,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (74,9 % ga ko'paygan), 3 055,4 aroq ming I 100%li spirt aroq mahsulotlari (38,4 m. ga ko'paygan) hamda 718,5 ming tonna tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari-ming I (8,9 m. ga) ga ko'paygan), shuningdek 38,2 ming tonna xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), jumladan bitumsimon jinslardan olingan neft-ming t (8,3 % ga kamaygan), 12 243 tabiiy qumlar-t (56,9 % ga kamaygan).

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Aroq, ming liter	104,5	79,5	3 055,4
Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna	9 244	8 535	17 332
Paxta tolasidan yigirligan ip, tonna	13263,0	16 939,7	22 633,4
Neft bitumi, ming t	30,9	28,5	24,7
Tabiiy qumlar, ming t	9,7	28,4	12,2
Toshko'mir, ming t	176,3	337,2	356,0
Xom neft, ming t	45,9	41,7	38,2
Boshqa paxta chigit, ming t	13,5	6,8	20,7
Kepak, ming t	5,9	6,0	13,3
Portlandsement, ming t	513,1	556,3	149,3
Zargarlar tayyorlagan oltin va kumush buyumlar va ularning qismlari, t	-	-	0,2

*2023-2024-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,9 % (2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 35,6 % (2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2024-yilning yanvar-iyul oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,6 % (0,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,1 % (26,7 %), quiyi texnologiyali 72,5 % (71,7 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 103,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 76,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Elektrenergiya, mln.kvt.s	288,1	435,8	449,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	16,0	13,5	10,3

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 4,1 m. ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,2 m. ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	4,9	4,9	20,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	32,5	48,2	80,1
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	8,7	10,4	32,8

*2023-2024-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

**IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 6 759,5 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 70,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes subyektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 61,1 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyatiqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvsi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvsi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzallikkleri: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyy-hajmi-qiyatini-baholash-bo'yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

